YODGORLIKLARDA QO'LLANILGAN BEZAKLARDA ISHLATILGAN RANGLAR AHAMIYATI

Muminova Sevara Olovitdin qizi
Mutahassisligi:Samarqand davlat arxitektura-qurilish institute

Annotatsiya: *Maqolada Ranglarning kelib chiqishi ularning ma'no mazmuni. "Rangshunoslik" fani yuzaga kelishi, yodgorliklarida ishlatilgan bezaklarda ishlatilgan ranglar, Naqoshlik san'atida ranglarning qo'llanilishi haqida.*

Kalit so'zlar: *"Rangshunoslik", Mineralogiya ,"Qur'oni Karimda", Samarqand naqshlari Toshkent, Farg'ona naqshlari, "oltin"*

Ajdodlarimiz tabiat tomonidan yaratilgan barcha ne'matlarning sirli olamini, sabablarini o'rganishga harakat qilganlar va shunday xulosaga kelganlarki, dunyoda hech bir narsa sababsiz yaratilmagan. Chunonchi "rang" atamasi to'rtta harfdan iborat bo'lsa-da, uning ma'nosi va sirli olamini o'rganishga insonning umri yetmaydi. Rangni ilmiy o'rganish uchun "Rangshunoslik" fani yuzaga kelgan. Rang inson hayotida cheksiz ahamiyatga ega. Shuning uchun asrlar davomida olimlar tomonidan ranglar haqida ko'p ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Hattoki bir qancha davlatlarda maxsus rang tadqiqot institutlari va ilmiy labaratoriyalar ishlamoqda (Yaponiya, Germaniya, Rossiya). Dunyoning taniqli olimlari tomonidan rang orqali ramziy ma'noda gapirish, ranglar vositasida insonlarni davolash, tarbiyalash, ranglar jilvasi orqali falsafiy fikr berish, rang orqali insonlarning ichki dunyosini bilish, qishloq xo'jalik mahsulotlari unumdorligini oshirish, insonlarning ma'naviyatini shakllantirish va boshqarish masalalari o'rganilmoqda. Ajdodlarimiz tabiatning shu sirli olamdagi ranglaridan hayratga tushib, asrlar davomida uni o'rganib kelishmoqda. Muqaddas "Qur'oni Karimda" ham rang mo'jizalari haqida quyidagi falsafiy fikrlar bildirilgan: "Ollohdan ham go'zalroq rang beruvchi bormi?!"[1] yoki "... ranglari turli bo'lgan mevalarni chiqarganimizni ko'rmadingizmi?!", yana "... tog'larning oq, qizil, rang-barang yo'l-yo'lisi ham, til qorasi ham bordir"[2] "Shuningdek odamlar, jonivorlar va chorva hayvonlari orasida ham turli ranglilar bordir"[3].

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kamoliddin Behzod, Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonda mashhur ajdodlarimiz rang, uning turlari, nomlari, ramziy ma'nolari, inson sog'lig'iga ta'siri va boshqalar haqida juda ko'p yozganlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Chunonchi: Abu Rayhon Beruniy o'zining "Kitob al Javohir-ma'rifat al Javohir" (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o'tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to'g'risida yozib qoldirgan[4].

Sharqda musavvirlar, naqqoshlar, xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar hamda ularning nomini, hattoki, har bir rangning ramziy ma'nosini bilganlar. Ulardan bizgacha yetib kelgan ba'zi namunalar: alvon, rahuvon, bargi karam, binafsha,

bug‘doyrang, buz gulgun, jigarrang, zangori, zarafshon, zumrad, qahrabo, kulrang, ko‘k lojuvard, lola rang, mahalla, moviy, moshrang, nafarmon, oq pistamagiz, pistaqi pushti, sariq, savsar samorang, sur, feruza, uchoq, kesak qizil, qirmizi, qora, qora mag‘iz, qoracha qo‘ng‘ir, havorang anordona, aqiq, bayzo gul, barg rang, baqa tuni, bika tuni, bika, burul, gulnor, gulobi, dani farang, jigari, jiyron, jo‘ja, ziynovi, zar, zarchava, zarg‘aldoq, kaptar bo‘yin, ko‘kimtir, lilovi, limurang, maykaylik mikori, novvotrang, nilobi, nimtatir, nim pushti, norgul, olovrang, olmatakor, oq upa suvi, sabzirang, samak kesaksiyo, sir, sovot, surmarang, tillarang, tupori to‘liq, tutiyoyi va boshqalar. Afsuski, yillar, asrlar o‘tishi bilan asta-sekin ranglarning nomi, ramziy ma’nosi hamda ularning tili yo‘qolib ketish arafasiga kelib qoldi.

Xalq amaliy bezak san’ati o’zining qadimiyligi ranglar jozibadorligi bilan kishilarning qalbidan chuqur joy olib kelmoqda. Ayniqsa, naqqoshlik san’atimiz an’analarga boy. Naqqosh ustalarimizning ish uslublari rang-barang va serqirraliligi bilan ajralib turadi. Naqqosh o’z ishida ranglarning tabiiy jilosidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi.

Tabiatga sinchiklab qaragan kishi u benihoya rang-barang ekanligini, ranglar turli-tuman tovlanishining guvohi bo’ladi. Mavjud ranglar terminologiyasida ularning anchasi nomlangan va ta’riflangan. Ushbu klassifikatsiyada ranglar xarakteriga ko’ra ikki turga bo’linadi. Birinchisi, iliq ranglar deyiladi. Bu turga qizil ranglar (to’q qizil, och qizil, qirmizi, lola rang, gulobi, gulnor), Sariq ranglar (och sariq, to’q sariq, zarg’oldoq, limon rang) kiradi. Bu ranglar alanga, cho’g’, qizigan temir va quyoshni eslatgani uchun rangshunoslikda iliq ranglar deb ataladi Ikkinchi turi esa sovuq ranglar bo’lib, bunga zangori, binafsha, uning turlaridan savsar kiradi. Bular muz, havo, suv va ko’kat singarilarni eslatgani uchun sovuq ranglar deb ataladi. Yashil rang esa o’z tusiga ko’ra, iliq yoki sovuq ranglar qatoriga qo’shiladi.

Ranglar uyg’unligiga erishish, ranglarni monand qilib surish – murakkab san’at hisoblanadi. Chunki ranglarning turi qanchalik ko’p bo’lmasin, ular rasm va naqqoshlik san’atida uch xil – qizil, sariq va ko’k ranglarning o’zaro turlicha nisbatda birikishi natijasida hosil bo’ladi. Hosila ranglar asosiy ranglar yordamida topilishini, ranglar o’rtasidagi o’zaro munosabatini, ranglar garmoniyasi va fakturasi, ranglar kontrasti qonuni kabi tushunchalarni o’quvchilar mukammal o’rganishlari zarur. Sababi, ranglar bo’yicha o’zlashtirilgan bilim va ko’nikmalar ular o’rtasidagi uyg’unlikni belgilashda katta yordam beradi. Odatda naqsh kompozitsiyasida biror bir rang hukmron bo’ladi[5].

Naqqoshlik xalq-amaliy bezak san’atning bir turi sifatida qadimdan o’zbek madaniyatining muhim bo’lagi hisoblanadi. Ko’p asrlar mobaynida uning badiiy an’analari vujudga keldi va rivojlandi. Naqshlarda san’atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog’liqligini, milliy an’analarning davomiyligini ko’rish mumkin. Naqqoshlik an’analari san’atning ana shu turini o’rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o’g’ilga o’tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqqoshlik san’ati hozirgacha

saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go’zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar o’yini musiqadagi ohang singari, qo’shiq va ertak kabi “xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan” tarkib topgandir.

Samarqand naqshlari Toshkent, Farg’ona naqshlariga o’xshab ketadi. Samarqand naqshlarida zangori-yashil rang tuslari ko’plab qo’llaniladi. Naqsh kompozisiyalaridan o’simliksimon murakkab girih turlari alohida joziba kashf etadi. Samarqand naqsh turlarida edirma-pardoz usullari keng qo’llaniladi. Bu naqqoshlik maktabning nomoyondalariga: usta Raxmon, usta Jamoliddin, usta SHarif, usta Aminjon, usta Mahmud va boshqalar kiradi[6].

Ajdodlarimiz ranglarning xususiyatlarini yaxshi bilganlar. Ular atrofimizni o'rab turgan tabiat ranglariga shaydo bo'lganlari uchun zangori lojuvard va yashil ranglarni ko'p ishlatganlar. Binolarning koshin va pargin sirlariga, oftob nurida tovlanishini hamda atrofdagi ranglar bilan uyg'unligini xisobga olib, munosib bo'yoqlar tanlaganlar. Pargin va koshinlarda, asosan, lojuvard, zangori, yashil, sariq va oq ranglar ishlatilgan.

Ibn Sino ranglarning ruhiyatga ta'siri haqida quyidagilarni yozgan . “Qora, yashil rangdan ko'zga bor manfaat. Shu ranglardan topgay basorating quvvat. Oqu sariq ranglar haddan oshsa agar, bundan sening ko'zlaringga yetgay zarar”.Sariq rang asab tizimini kuchaytirishini ta'kidlaydilar. Bu boshqa ranglar ichida eng quvnog'i sanaladi. Qadimda ota-bobolarimiz sariq rangni sariq kasalga davo deb hisoblashgan. Shuning uchun bemorga sariq libos kiydirishgan va uyini sariq rangli buyumlar bilan jihozlashgan. Alisher Navoiy sariq rang to'g'risida shunday degan:

Yara qon da'fi sariq jins qilur, turfa ko'rung.

Kim bilur tegsa yuzing to'kig'a bisyor sarig'.

Oq rangning ham o'ziga xos tomonlari bor.Azaldan kishilar yangi uyga ko'chib o'tish oldin xonaga un syepishgan. Ayrim joylarda hanuz kelinnikiga kuyov tomondan kelgan quda andalarga un sepishadi. Odatda kelin-kuyov yo'liga oq matodan payondoz to'shaydilar.

Ranglarning ramziy ma'nolari.

Yashil - ona tabiat ramzi.

Ko'k - moviy osmon tinchlik va yomon ko'zdan asrash ramzi.

Qizil - g'alaba, xursandchilik, shodlik ramzi.

Sariq - muqaddaslik ramzi.

Qora - motam ramzi.

Sariq- ayriliq ramzi.

Zangori - e'tiqod ramzi.

Oq - tozalik, yorug'lik, baxt va omad ramzi.

Markaziy Osiyo me’morchiligida oq, sariq ranglar ko‘k, qora, och ko‘k va yashil ranglar zamini bilan birikib andek nafis ko‘rinish hosil qilgan.

Astrologiyada dunyo sayyoralarining va haftaning, har bir kunning ranglari mavjud. Masalan, sariq rang – quyosh, yakshanbani bildiradi.

Markaziy Osiyoda me'morchilik san'atiga sirlangan sopol qoplamalarning tatbiq etilishi bilan rang o'rta asrlar shaharsozligida tub o'zgarishlarga olib keldi. Me'moriy binolarda rang-barang koshinlar quyosh nurida tovlanib turuvchi ko'kish yoqut ranglar bilan joylashtirilib, ularga joziba, jarangdor ohang bag'ishladi. Amerikalik islom madaniyati tarixchilari R.Ettingxausen va O. Grabarlar aytganidek, "Me'morchilikda rangdan foydalanish musulmon madaniyatining nihoyatda muhim, noyob yutug'iga aylangan".

XIV asrga kelib, moviy, feruza ranglar berilgan sirli o'yma sopol ko'p qo'llanilgan. XIV asrning birinchi yarmi va o'rtalarida binolarning tashqi qismiga sirlangan koshinlardan ko'plab bezak berila boshlandi va bu holat keng tarqaldi. Ushbu holatlarni Shohizindadagi Qusam ibn Abbos maqbarasida (1334 y.) Xoja Ahmad (1360 yillar), Otsiz (1361 y.) va boshqa tarixiy yodgorliklarda ko'rish mumkin. XIV asrning 60 yillarida Buxorodagi Bayon Qulixonning maqbarasidagi devorlar ham marganets-jigarrang va ko'k rang, moviy-feruza va oq ranglar bilan boyitilgan o'yma naqshli sirlangan sopol bilan to'ldirib, bezatib chiqilgan.

"Me'morchilikda "moviy-feruza uslubi" temuriylar davrigacha asosiy o'rin tutdi. XIV asr oxiridan me'morchilik inshootlarida sirlangan koshin qoplama va bo'yoqlarning yangi turlari qo'llana boshlanishi bilan rang sohasida tub burilish ro'y berdi. Xorijdan keltirilgan kobalt ("musulmon ko'k bo'yog'i") yordamida hosil qilingan ko'k tusning xilma-xil ko'rinishlari muhim yangilik bo'ldi. Kompozitsiyalarda feruza va to'q ko'k ranglarning uyg'unlashuvi temuriylar davri klassik bezagiga aylandi".

Bosh iloh - "oltin" Quyosh atrofida aylanuvchi "rangli sayyoralar" g'oyasi me'morchilikda ko'p davrlar mobaynida qo'llab kelingan. Shu o'rinda har bir bosqichi turli ranglarga bo'yalgan qadimgi rasadxonalar, Shumer, Bobil va Assuriya ehrom, ibodatxonalari va Gerodot eslab o'tgan shoh qarorgohi atrofidagi birin-ketin ko'tarilib borgan turli rangdagi yetti halqasimon devor shaklida qurilgan Midiya poytaxti Akbatandagi qasr kabi inshootlarni eslab o'tish kifoya. Me'morchilik qoplamalarida yetti "ilohiy" rangni bir qilib uyg'unlashtirishni dunyoviy uyg'unlikning timsoli bo'lib qolgan osmoniy, jannatiy uyg'unlik, binolarning o'zini esa yerdagi jannat, ilohiy go'zallik ifodasi sifatida baholash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Movarounnahr me'morchiligi temuriylar davrida o'ziga xos sariq bilan feruza-ko'k ranglar va nihoyat, to'yingan ko'p ranglikka tomon rivojlanib bordi. Buni dunyoviy tamoyillarning namoyon bo'lishi sifatida ko'rish mumkin.

RANGLARNING RAMZIY MA'NOLARI

№	Ramzlar	Ko'rinishi	Ma'nosi
1	Yashil rang		Ona tabiat, Islom ramzi
2	Moviy rang		Osmon, koinot, tinchlik, yomon ko'zdan asrash ramzi
3	Qizil rang		G'alaba, olov, iliqlik, xursandlik, shodlik, qon
4	Sariq rang		Muqaddaslik, yorug'lik, quyosh, kenglik
5	Qora rang		Motam, cheksizlik, mavhumlik, qo'rquv, tushkunlik, noaniqlik
6	Zangori rang		Oliy e'tiqod
7	Oq rang		Poklik, ozodlik, yorug'lik, baxt, omad

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Quroni Karim. Baqara surasi, 138 oyat.
2. Quroni Karim. Fotir surasi, 27 oyat.
3. Quroni Karim. Fotir surasi, 28 oyat.
4. Abu Rayhon Beruniy. Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi."Kitob al Jamohir-fi-Ma'rifat al Javohir" (Mineralogiya): "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. -488 b.
5. E.M.Muhammadiyev, SH.X. Tugizov., K.B.Yunusova. Dizayn asoslari. Samarqand: 2019.
6. Qur'oni karim, Furkon surasi. 61-oyat.